

Qashqadaryo viloyatida  
kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma`lumotlar)

2019- yil yanvar-iyun

**E'tibor bering!**

- 2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 57,7 % tashkil etdi.
- 3067 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,6 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-iyunda 3067 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,4 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (30,4 %), sanoat tarmog'ida (24,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (17,1 %), qurilish sohasida (12,3 %), yashash va ovqatlanishda (6,0 %), tashish va saqlashda (2,6 %) tashkil etilgan.



sanoat

24,2%



qishloq, o'rmon va baliq  
xo'jaligi

17,1%



savdo

30,4%



yashash va ovqatlanish  
xizmati

6,0%



qurilish

12,3%



tashish va saqlash

2,6%

## Qashqadaryo viloyatida

### 2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari


	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>16236</b>	<b>19467</b>	<b>3231</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1578</b>	<b>3067</b>	<b>1489</b>
YaHM	%	61,9	57,7	-4,2
Sanoat	%	101,0	100,1	-0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,7	99,7	0,0
Investitsiya	%	103,6	104,3	-11,7
Qurilish	%	112,1	135,9	7,5
Savdo	%	102,5	100,9	-1,6
Xizmatlar	%	102,4	111,3	9,0
Yuk tashish	%	104,2	104,1	-0,1
Yuk aylanmasi	%	102,6	104,3	1,7
Yo'lovchi tashish	%	103,9	103,8	-0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	102,5	103,1	0,6
Eksport	%	2,8M	76,0	-2,4M
Import	%	2,9M	2,6M	0,3M

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**

*(birlikda)*


	<b>Yanvar-iyun 2018 y</b>	<b>Yanvar-iyun 2019 y</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1578</b>	<b>3067</b>
Qarshi sh	297	592
Shaxrisabz sh	92	208
tumanlar		
G'uzor	59	114
Dehqonobod	61	99
Qamashi	113	161
Qarshi	117	239
Koson	110	170
Kitob	112	198
Mirishkor	62	164
Muborak	71	91
Nishon	75	136
Kasbi	56	210
Chiroqchi	139	268
Shaxrisabz	84	197
Yakkabog'	130	220

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Qarshi shahrida - 592 ta, Chiroqchi tumanida - 268 ta, Qarshi tumanida - 239 ta, Yakkabog' tumanida - 220 ta, Kasbi tumanida - 210 ta, Shaxrisabz shahrida - 208 ta, Kitob, Shaxrisabz, Koson, Mirishkor, Qamashi, Nishon, G'uzor, tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 198-114 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Dehqonobod (99 ta) Muborak (91 ta) tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi,  
foizda**



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Qarshi shahrida -19,3 %, Chiroqchi numanida - 8,7 %, Qarshi - 7,8 %, Yakkabog' - 7,2 %, Kasbi - 6,8 %, Shaxrisabz shahri - 6,8 %, Kitob - 6,5 %, Shaxrisabz - 6,4 %, Koson, Mirishkor, Qamashi, Nishon, tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 5,5-4,4 foizni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni G'uzor, Dehqonobod, Muborak, 3,7-3,0 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-iyun 2018 y.</b>	<b>yanvar-iyun 2019 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1578</b>	<b>3067</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	258	524
Sanoat	251	743
Qurilish	220	376
Savdo	274	932
Tashish va saqlash	39	80
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	70	185
Axborot va aloqa	17	31
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	58	60
Boshqa turdagi xizmatlar	391	136

2019 yil yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p **savdoda** 932 ta, shuningdek :

**Sanoatda** - 743 ta.;

**Qurilishda** - 376 ta.;

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** - 524 ta.;

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** – 185 ta


**Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** – 60 ta.;

**Axborot va aloqa sohasida** - 31 ta.;

**Tashish va saqlash** - 80


**Boshqa turdagi xizmatlar** – 136 ta.

**yangi tashkil topgan kichik korxonalar va  
mikrofirkmalarning Iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha ulushi  
(foizda)**




Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi savdoda – 30,4 foiz, sanoatda 24,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 17,1 foiz, qurilishda – 12,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 6,0 foiz, tashish va saqlashda - 2,6 foiz, axborot va aloqada - 1,0 foiz, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 2,0 foiz va boshqa turdagi xizmatlarda – 4,4 foizni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**




Agar, 2018 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,2 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 11,6 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,6 birlikka ko'paydi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 19,5 %, qurilishda - 85,4 %, investitsiyada - 11,3 %, savdoda - 89,6 %, eksportda - 31,7 %, importda - 57,5 % va xizmatlar sohasidagi - 69,0 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


## 2019 yilning yanvar-iyunda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi



**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning  
YaHM dagi ulushining pasayishi dinamikasi  
yanvar-iyun holatiga, %**



**Kichik tadbirkorlikning ulushi  
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**



**Qashqadaryo viloyatida 2019 yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning hududlar bo`yicha ulushi, (%)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
Qashqadaryo viloyati	<b>19,5</b>	<b>85,4</b>	<b>69,0</b>	<b>11,3</b>
Qarshi sh	59,8	85,7	46,0	14,0
Shaxrisabz sh	49,9	57,9	80,7	65,2
tumanlar				
G'uzor	2,2	91,7	88,5	14,1
Dehqonobod	10,4	100	99,6	7,4
Qamashi	85,0	94,1	97,5	85,6
Qarshi	24,2	99,9	97,7	16,6
Koson	29,3	46,1	97,7	84,8
Kitob	100	98,2	95,8	85,9
Mirishkor	53,8	100	83,7	87,9
Muborak	1,3	87,8	66,6	9,8
Nishon	4,5	100	96,3	0,9
Kasbi	36,2	94,9	97,7	33,8
Chiroqchi	88,9	100	99,6	70,9
Shaxrisabz	80,1	99,4	89,5	45,9
Yakkabog'	76,4	86,7	93,9	62,5


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Chiroqchi (88,9 %) va Qamashi (85,0 %), tumanlari tashkil etadi

Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Nishon (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), va Chiroqchi (100,0%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Koson (97,7%) Qarshi (97,7%) Kasbi (99,7 %), tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada Mirishkor (87,9 %), Kitob (85,9 %), va Qamashi (85,6 %) tumanlari tashkil etadi.

### Qashqadaryo viloyatida 2019 yil yanvar-iyunda kichik Tadbirkorlik (biznes)ning tarmoqlar bo'yicha ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik  
sub'yektlari  
tomonidan

2019 yil yanvar-iyun holatiga



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1831,5 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 19,5 %) yoki 2018 yilning yanvar– iyunga nisbatan o`shish sur`ati 100,1 %ni tashkil qildi;

1172,3 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 11,3 %) o`zlashtirildi va 2018 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 %ni tashkil qildi;



2152,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 85,4 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar– iyunga nisbatan o`shish sur`ati 135,9 % ni tashkil qildi;

2709,4 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 69,0 %), 2018 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`shish sur`ati 111,3 % ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 89,6 % 4409,9 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 105,6 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

58,7 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 31,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.




avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,3 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 85,9 %) ko`payishi ta`minlandi;

yo`lovchi aylanmasining esa 3,1 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 96,1 % ) ko`payishi ta`minlandi;




## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Qamashi, Kitob, Mirishkor, Kasbu, Yakkabog', va Shaxrisabz tumanlarida – 100 %, tashkil etdi.


## 2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi.



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi sh. (684,6 mlrd.so'm), Kitob (147,6 mlrd.so'm) va Shaxrisabz (110,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (26,3 mlrd.so'm) va G'uzor tumanlarda (39,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




## 2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi (100,0%), Kitob tumanida kuzatildi .


## 2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o`shish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (1056,7 mlrd.so'm), Koson (437,4 mlrd.so'm), Chiroqchi (378,1 mlrd.so'm), va Qamashi (314,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.




## 2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Nishon (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), va Chiroqchi (100,0 %), tumanlari tashkil etadi.

## 2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (904,9 mlrd.so'm), Koson (205,8 mlrd.so'm) va Kitob (174,5 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## Qashqadaryo viloyatida 2019 yilning yanvar-iyunda yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 149 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 30,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 50,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 48,0 % va 43,0 %, xizmatlar sohasida – 46,0 % va 50,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 13,0 % va 79,0 %, sanoatda – 32,0 % va 60,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 8,0 %, qurilishda – 20,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 8,0 %, xizmatlarda – 4,0 % va savdoda – 9,0 %ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 73,0 sanoat korxonalari, 75,0 % – savdo, 83,0 % – xizmatlar, 71,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 70,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: E.Begmurodov  
Tel: (0371) 230-83-90